

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

SARHISOB

*Filologiya fanlari doktori, professor
Qurdosh Qahramonov ilmiy-ijodiy portretiga chizgilar*

Qozoqboy Yo‘ldoshev,
pedagogika fanlari doktori, professor

Islomjon Yoqubov,
*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
professori, filologiya fanlari doktori*

1. Muqaddima

Samarqand viloyati Nurota (*hozirgi Qo‘shrabod*) tumani Pangat qishlog‘ida yashovchi Yalg‘ash muallim (*Qurdosh Qahramonovning otasi, 1928-2002*) umr yo‘ldoshi Nozbuvi (1933-1997) bilan ezgu niyat qilishib to‘ng‘ich o‘g‘illari tug‘ilganida unga Ko‘bay (*aka-ukalari ko‘p bo‘lsin, o‘zimizdan ko‘payaveraylik degan ma‘noda*) deya ism qo‘yishdi. Yaratganning inoyati bilan sal o‘tmay, oilada yana beshta o‘g‘il: (*Qurdosh, Ro‘ziboy, Aliboy, Valiboy, Sobirjon*) va to‘rt nafar qiz (*Mavsum, Ozoda, Zulfiya, Osiyo*) tug‘ilishdi.

Bu farzand-u arjumandlar insoniy balandlik, zalvarli fikr, shoirona jo‘shqinlik, bag‘rikenglik kabi fazilatlarini nainki, o‘z kayvoni momolari, donishmand bobolari-yu ota-onalari, balki, Nurota tog‘ tizmalarining yuksak qoyalari, qaynoq buloqlari, jo‘shqin soylari, tog‘u toshlarining bag‘riga yashiringan asriy ma‘danlardan ham oldilar. Shu yurtga o‘zgacha mehr-muhabbat qo‘ydilar. Pangat timsolida butun Ona zaminni ardoqladilar...

Sokin tunlarda osmoniga qo‘l cho‘zsa, bir etak terib olish mumkinday yonginangda sochilib yotadigan yorqin yulduzlar, tun bag‘rini sutday yoritgan Oy, Sharq tomondagi tog‘lar ortidan balqib, kun bo‘yi nur taratgach, G‘arbiga – tog‘lar ortiga shoshib enib boruvchi sahovatli Oftob ularning qalbiga ajib his-tuyg‘ular muhrladi. Olis-olis manzillar sari tinimsiz chorlayverdi...

Shu tarzda Qurdosh bilan Aliboy azim Shoshga kelib muqim bo‘lib qolishdi. Boshqacharoq aytganda, bu hol Yalg‘ash ota va Nozbuvi momolarga taqdirning yana bir yaxshi in‘omi edi. Aksariyat farzandlar va kelinlargina emas, hatto ayrim nevaralar ham ot o‘rnini toy bosar qabilida ota izidan borib, pedagoglik kasbini tanlashdi. Ular orasidan Qurdosh filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi bo‘lsa, ukasi Aliboy fan nomzodi va dotsent bo‘lib ilmiy-adabiy jamoatchilikning e‘tibori, e‘tirofiga sazovor bo‘lishdi – elga tanilishdi. Aka-ukalarning har ikkalasi ham o‘z ilmiy-izlanishlari va pedagoglik faoliyatlarini

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

muharrirlik hamda noshirlik bilan qo‘shib olib borishdi. Yangi avlod ham ularning ortidan ergashdi. Shu tarzda oqqan daryo oqib, mavjlanaverdi...

Xullas, maqolamiz qahramoni o‘sha fayziyob oilaning ikkinchi o‘g‘li va yer kurrasining Pangat deb ataluvchi mo‘jaz go‘shasida kamol topgan Qahramanov Qurdoş bo‘lib, u 1954-yilning 19-aprelida tavallud topgan. Binobarin, bu yil o‘zining muborak 70 yillik yubileyini nishonlash arafasida.

2. Umr yo‘li bayoni

Qurdoş Qahramon dastlab o‘rta maktabda, so‘ngra Toshkent davlat pedagogika instituti (*hozirgi TDPU*) ning “*O‘zbek tili va adabiyoti*” fakultetida tahsil olib, 1974-yilda muvaffaqiyatli yakunladi. U o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi mutaxassisi bo‘lib kamol topdi. U 1974-1979-yillarda qadrdon tumaniga qaytib, 50- va 62- o‘rta maktablarda o‘qituvchilik qildi. Ammo talabalik yillaridayoq ilmga bo‘lgan havas uning qalbini zabt etgan ediki, bu istak maqsadga, maqsad esa intilish va faoliyatga ko‘chib, uni yana poytaxt shaharga chorladi.

Q.Qahramonovning ilmiy izlanuvchilik faoliyati 1979-yilda O‘zR FA Til va adabiyot institutida laborantlikdan boshlandi. U 1983-1986-yillarda katta laborant, 1986-1989-yillarda esa kichik ilmiy hodimlikka tomon bosqichma-bosqich o‘tib bordi. Ko‘p yillik izlanish mashaqqatlaridan so‘ng 1988-yil iyun oyida “*Bolalar adabiyotida realistik prinsiplarning shakllanishida adabiy tanqqidning roli*” mavzusidagi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo‘ldi.

Olimning shundan keyingi faoliyati o‘zi tahsil olgan qadrdon maskan TDPU (*sobiq TDPI*) bilan chambarchas bog‘liqdir. Q.Qahramonov 1989-yilda Toshkent davlat pedagogika instituti “*Hozirgi o‘zbek adabiyoti*” kafedrasiga katta o‘qituvchi bo‘lib ishga keldi. Oradan sakkiz yil o‘tgach (1997) esa, Oliy attestatsiya komissiyasi “*Hozirgi milliy adabiyot (o‘zbek adabiyoti)*” ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvonida tasdiqladi. Shundan so‘ng 1997-1999-yillarda shu kafedraga mudirlik qildi. U 1999-2012-yillar oralig‘ida kafedra dotsenti sifatida faoliyat yuritdi.

Ilmning chaqir tikanli yo‘llari zahmatidan cho‘chimaydigan Q.Qahramonov qalbidagi talpinish otashi hamon gurillar, yangi-yangi kashfiyotlar sari undardi. Astoydil qilingan mehnat va izlanish zinhor besamar ketmas ekan. U 2012-yilning iyun oyida “*Istiqlol davri o‘zbek tanqidchiligi metodologiyasining yangilanish tamoyillari*” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini oldi va 2012-2016-yillarda “*O‘zbek adabiyoti*” kafedrasida professori vazifasini bajardi. 2016-2018 – yillarda O‘zR.FA o‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida yetakchi ilmiy xodim, 2020-2021-yillarda bo‘lim boshlig‘i

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

lavozimlarida ishladi. Lekin hech qachon sevimli maskani TDPUni butkul tark etmadi. Olim umrining 50 yili ijtimoiy mehnatga sarflangan bo‘lsa, shundan. 41 yilini pedagoglik, o‘ttiz yildan ortig‘ini esa TDPU dagi qizg‘in faoliyat tashkil etadi.

3. Ijtimoiy-ta’limiy faoliyat: mashaqqat va bardosh

Q.Qahramonov hozirda bakalavriat va magistratura yo‘nalishlarida “*O‘zbek adabiy tanqidi tarixi*”, “*Adabiyot nazariyasi*”, “*O‘zbek adabiyoti tarixi*”, “*O‘zbek bolalar adabiyoti*”, “*Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti*” o‘quv kurslari bo‘yicha ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar olib bormoqda. U ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarini zamonaviy o‘qitish usullarini egallagan holda, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda multimedia ta’lim resurslaridan foydalangan holda yuqori ilmiy va o‘quv-uslubiy saviyada olib boradi. Talabalarga fanlarning mazmunini chuqur singdirish uchun reja asosida har bir mashg‘ulotlarga slaydlar, pedagogik texnologiyalar asosida tarqatma materiallar tayyorlaydi hamda ulardan dars jarayonida unumli foydalanadi. Jumladan, bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “*O‘zbek adabiyoti*” fanidan kafedra professor-o‘qituvchilari bilan hammualliflikda multimediali o‘quv-uslubiy majmualar yaratdi. Hozirda undan ta’lim jarayonida keng foydalanilmoqda.

U “*O‘zbek adabiyoti*”, “*Adabiy tanqid tarixi*”, “*O‘zbek bolalar adabiyoti*” kurslari bo‘yicha namunaviy va ishchi o‘quv dasturlari tuzishda faol ishtirok etib kelmoqda. Xususan, “*Hozirgi o‘zbek adabiyoti*” kursi bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma chop ettirdi. “*Adabiy tanqid tarixi*” kursi bo‘yicha respublikamizda taniqli adabiyotshunos olimlar - akademik Baxtiyor Nazarov, professor Abdug‘afur Rasulov, BuxDU professori Shoira Ahmedovalar bilan hammualliflikda “*O‘zbek adabiy tanqidi tarixi*” nomli darslik yaratdi. Ushbu darslik vazirlik tomonidan “*Cho‘lpon*” nashriyotida chop etilib, filologiya fakulteti mavjud bo‘lgan OTM axborot-resurs markazlariga tarqatildi. Oliy ta’lim vazirligi tomonidan o‘tkazilgan “*Yilning eng yaxshi darsligi va o‘quv adabiyoti muallifi*” Respublika tanlovida ishtirok etib rag‘batlantiruvchi o‘ringa munosib topildi va vazirlikning faxriy yorlig‘i bilan mukofotlandi.

Q.Qahramanov “*O‘zbek adabiyoti*” kafedrasining ish rejasiga asosan ilmiy-metodik seminar va konferensiyalarda adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari va ta’lim -tarbiya sohasiga oid yangiliklarga doir ma’ruzalari bilan muntazam qatnashib turadi. Kafedrada o‘qitiladigan fanlarning Davlat ta’lim standartlari, malakaviy talablari, ishchi o‘quv rejasi, namunaviy va ishchi dasturlari, o‘quv-uslubiy majmualarini tayyorlashda faol ishtirok etib keladi. U dolzarb mavzularda noa’naviy usullar asosida ochiq dars mashg‘ulotlarini o‘tkazib, yosh pedagoglarga

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

o‘rnak bo‘lib kelmoqda. Universitet, shahar va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, xususan, an’anaviy navoiyxonlik va boburxonlik kechalarida dolzarb muammolar bo‘yicha o‘z hayotiy kuzatishlari negizida ma’ruzalar o‘qib kelmoqda. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi sifatida respublikamizning taniqli shoirlari, nosirlari, dramaturglari hamda adabiyotshunoslari bilan davra suhbatlari o‘tkazish, ularni o‘quv-tarbiya jarayonlariga jalb qilishda o‘zining tashabbuskorligi bilan alohida ajralib turadi. Q.Qahramanov iqtidorli talabalarning ilmiy-ijodiy ishlariga rahbarlik qiladi. Ularning yutuqlarini vaqti matbuotda targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratadi. Shu bois 2023-yildagi pedagoglik faoliyati yuzasidan jamoada o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovlar natijasiga ko‘ra eng yuqori ball to‘pladi. Olim O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi fan doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar himoyasi bo‘yicha ixtisoslashgan kengash va shu kengash qoshidagi seminar, shuningdek TerDU qoshida tashkil etilgan ilmiy kengash a’zosi sifatida yosh olimlarning ilmiy tadqiqotlari muhokamalarida ishtirok etadi. Tadqiqotlarning yanada mukammal va pishiq bo‘lishiga yaqindan yordam beradi. Ta’kidlash o‘rinliki, adabiyotshunos olim 2013-2023-yillarda OAK qoshidagi ekspertlar kengashida filologiya fanlari yo‘nalishi bo‘yicha ekspert a’zosi sifatida xolis va samarali ishladi.

Adabiyotshunos olim o‘z ilmiy-pedagogik faoliyati davomida o‘nlab magistrlik dissertatsiyalariga, yuzlab bakalavrlik bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlik qildi. Chunki Q.Qahramonov bugungi bakalavr ertaning magistri, magistri esa mustaqil tadqiqotchisi ekanini yaxshi anglagani uchun yosh shogirdlarini ilm-fanning aniq muammolariga yo‘naltirishga alohida e’tibor qaratadi. Shuning uchun o‘nlab shogirdlari bugungi kunda fan nomzodi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalariga ega bo‘lib, uning qanoti ostiga kirgan. Ular orasida Gulnoza Jo‘rayeva, Nafisa Umurzoqova, Dilafro‘z Jabborova, Feruza Burxonova, Mahbuba O‘razboyeva singari iqtidorli yoshlar bor. Bir qator shogirdlari o‘z izlanishlarini faol davom ettirishmoqda. Demak, bimalol aytish mumkinki, Q.Qahramonov ilmiy-adabiy maktabi shakllangan. Ushbu maktab vakillari hikoyachilikda zamon va qahramon; tanqidchilik tarixi hamda estetik tafakkurdagi yangilanishlar; hikoya, qissa va roman janrlarida davr va shaxs fojiasining tasviri; badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili; poetik mahorat va talqin muammolari; munaqqid “men”i; adabiy oqim va yo‘nalishlarning zamonaviy adabiyotga ta’siri; bolalar adabiyoti kabi adabiyotshunoslikning nazariy muammolari, hozirgi adabiy jarayonning dolzarb masalalari tahlili va tadqiqiga bag‘ishlangan salmoqli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishmoqda.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Ilm-ma’rifatga rag‘bati baland, salohiyatli va iqtidorli yoshlarga xayrixoh olimning ilmiy va uslubiy ishlari soni ellikdan ortiq bo‘lib, ular: uchta monografiya, ikkita risola, bitta darslik, uchta o‘quv-uslubiy qo‘llanma va nainki respublikamiz, balki, olis va yaqin xorijiy mamlakatlar: AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Janubiy Koreya, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘istonning nufuzli ilmiy jurnallarida, turli to‘plamlarda chop etilgan maqolalardan iborat.¹

4. Darslik va o‘quv qo‘llanmalari (Yangi avlodini yaratish zahmati)

Mustaqillik yillarida izchil tarzda amalga oshirilayotgan yangilanish va tozarish jarayonlari barcha sohalar singari Oliy ta’lim tizimida ham tobora teranlashib bormoqda. Xususan, adabiyot o‘qitishni yangilash, darsliklarning yangi avlodini yaratish borasida ham sezilarli yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. “*Tafakkur qanoti*” nashriyotida universitetlarning o‘zbek filologiyasi va pedagogika institutlari o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi uchun “*O‘zbek adabiy tanqidi tarixi*” (2012) darsligi chop etilishi shunday ezgu ishlardan biri bo‘ldi. Yuqorida ta’kidlanganiday, mazkur darslik mualliflari bo‘lgan respublikamiz yirik ilm fan va oliy ta’lim maskanlarining nufuzli olimlari qatorida Qurdosh Qahramonov nomi ham bor².

Darslik kompozitsion qurilishi jihatidan to‘rtta bo‘limdan iborat. Dastlabki bo‘lim fanga *kirish* bo‘lib, unda san’at va fan sintezidan tarkib topib, badiiy adabiyot muammolari xususida mulohaza bildirish va fikr yuritish yo‘sini bo‘lgan “*Adabiy tanqid*”ning lug‘aviy hamda istilohiy ma’nolari, ilmda o‘ziga xos hodisa sifatida namoyon bo‘lishi va fan sifatida shakllanib rivoj topish tarixi, spetsifik xususiyatlari, ijtimoiy estetik mohiyati, maqsad va vazifalari batafsil yoritilgan.

¹ Q.Qahramonovning so‘nggi yillardagi tadqiqotlari haqida muxtasar ma’lumot olish uchun qarang:

Qahramonov Q. Absurd faqat ma’nisizlikmi? // “Shark yulduzi”, 2009. -№ 2. –B. 146-153; Badiiy tafakkurdagi evrilishlar // “Jahon adabiyoti”, 2009. - № 3. –B. 137-142; Badiiy yuksak va falsafiy teran ijod sohibi // “Til va adabiyot ta’limi”, 2010. –№ 12. –B.50-60; The Tehdehcy of the New Approaches to the Jadid Literature in the Modern Uzbek Criticism // The korean journal of cehtral asian & caucasian studies. Vol. 2. – No.2 (2010). – Pp.137-158 (Janubiy Koreya Respublikasi Xankuk universitetining ilmiy jurnali); “Oltin zanglamas” romanida davr va shaxs fojiasi // “Sharq yulduzi”, 2013.-№ 3. B.108-110; Oliy ta’limda Cho‘lpon ijodini o‘rganishning ma’rifiy-estetik ahamiyati // “Pedagogik ta’lim”, 2013. -№ 4. B.56-60; Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Cho‘lpon she’riyatining ahamiyati // “Pedagogik ta’lim”, 2013. -№ 6. B.61-68.; Новые подходы в современной узбекской литературной критике // Kazakovedeniye. Mejnunarodnyy nauchnyy jurnal, Chimkant, № 3-4 (24-25) 2012.-S. 55-61; The Values of the Uzbek Literary Criticism in the Year of Independence // The Association of Comparative Study of World literature Vol. 45. – No.12 (2013). – Pp.423-449 (hammualliflikda) va b.

² Akademik Baxtiyor Nazarov (O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti), professor Abdug‘afur Rasulov (O‘zbekiston Milliy universiteti), filologiya fanlari doktorlari Qurdosh Qahramonov (Toshkent davlat pedagogika universiteti) hamda Shoira Ahmedova (Buxoro davlat universiteti)

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Ikkinchi bo‘lim *“O‘zbek adabiy tanqidining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari”* deb nomlangan bo‘lib, 1900-1990-yillar adabiy tanqidchiligi ikkita katta davrga ajratib o‘rganilgan:

1. *O‘zbek adabiy tanqidchiligining paydo bo‘lishi va shakllanish tamoyillari (1900-1925) yillar*: Ushbu bo‘limda Fitrat, Cho‘lpon, Vadud Mahmud adabiy tanqidiy qarashlari yoritilgan. Ularning professional adabiyot nazariyotchisi va munaqqid sifatidagi o‘ziga xosligi, izlanishlarining xarakterli jihatlari, diqqatini jalb etgan muammolar ko‘lamiga e‘tibor qaratilgan. O‘rni bilan, tanqidning shakllanishida matbuotning, xususan, Behbudiy, Miyon Buzruk Solihov, O.Sharafuddinov (*Ayn*), A.Sa‘diy kabi o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy, adabiy hayotida faol ishtirok etgan ziyolilarning adabiy-badiiy tafakkur taraqqiyotiga ta’siri masalalari o‘rganilgan. O‘sha davr adabiy tanqididagi janriy izlanishlarga munosabat bildirilgan.

2. *O‘zbek adabiy tanqidchiligi mafkuraviylashtirilish va realizm uchun kurash jarayonida (1927-1990-yillar)*: O‘z navbatida ushbu yillar tanqidiy tafakkuri (30- yillar; ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillar; 60-90-yillar hamda istiqloq arafasi kabi) uchta davrga ajratib o‘rganilgan.

a) *30-yillar adabiy tanqidi* xususida so‘z ketar ekan, adabiyotning mafkuralashtirilish jarayonlari aslida, adabiy siyosatdan boshlanib, ijod jarayoniga sun‘iy ko‘chirilganligiga diqqat qaratilgan. Shu jihatdan, o‘zbek adabiy tanqidchiligi tamoyillari sobiq ittifoq adabiy jarayonida kechgan hodisalarga hamohanglik fonida kuzatilgan. Davr tanqidchiligining ayrim nuqsonlari bilan bir qatorda, A.Qodiriyning *“Obid ketmon”*, A.Qahhorning *“Sarob”* singari asarlari tadqiqi va talqini asnosida u jiddiy sinovlarni boshidan kechirgani, shuningdek, shakl va mazmun, uslub va individuallik, xarakter va sharoit singari omillar dialektik birligini to‘g‘ri talqin etish, bolalar adabiyotiga e‘tibor qaratish kabi yutuqlarni qo‘lga kiritgani xolis baholangan. S.Husayn, O.Hoshim singari ko‘zga ko‘ringan munaqqidlarning o‘sha bosqich o‘zbek madaniyati va adabiyotshunoslik ilmini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog‘liq faoliyati, o‘ziga xos o‘rni haqqoniy tahlil etilgan. Ular adabiy tanqidiy asarlarini baholash orqali tanqidning madaniy meros va adabiy jarayonga munosabati, shuningdek *“O‘tkan kunlar”* tipidagi romanlar talqinidagi pozitsiyasi oydinlashtirilgan.

b) *Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillarda adabiy tanqidning mazmun mohiyati o‘sha yillarda badiiy adabiyotning mavzu doirasini belgilab bergan O‘zbekistonda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy va ma’rifiy hayot oqimi bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil etilgan. Zotan, respublikada adabiyotshunoslik fani rivoji jadalashuviga ta’sir ko‘rsatgan ichki va tashqi omillarga*

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

diqqat qaratmasdan, mazkur davr adabiyotining umumiy ruhi, qamrov miqyoslari, mavzu ko‘lami ortishi, janrlar tarkibi, obrazlar tizimiga xos o‘zgarish va yangilanishlar, ushbu jarayonga adabiy tanqidning ta’siri haqida to‘laroq tasavvur berish mumkin emas. Ta’kidlash o‘rinliki, M.Shayxzodaning “*Jaloliddin Manguberdi*” dramasi, Oybekning “*Navoiy*” romani yuzaga kelishi bilan boshlangan keng muhokamalar jarayonida milliy adabiy tanqidiy tafakkur ham rivoj topdi.

Ammo o‘tgan asrning 50-yillaridan e’tiboran adabiyot maydonida partiyaviylik va g‘oyaviylik talablarining o‘ta so‘llashuvi, millatchilikning yangi alomatlarini izlash, ya’ni qatog‘on mashinasining ikkinchi to‘lqini ta’siri kuzatildi. Bu hol adabiy tanqidni ham chetlab o‘tmadi. Tanqidda tadqiqotlarni davr ruhiga moslashtirish, zo‘rma-zo‘raki “*fosh*” etish, biryoqlamalik, hatto mutlaqo asossiz fikrlarni ilgari surish kabi noxush hollar kuzatildi. Badiiy asarlar pafosi, g‘oyaviy mazmuni, hozirjavobligi nuqtayi nazaridan baholandi. Adabiy taqriz faollashib, urush yillari tanqidchiligida muammoli maqolalar, umumlashtiruvchi tadqiqotlar nisbatan kamaydi. Albatta, bunday kamchiliklar sekin-asta, 50-yillarning ikkinchi yarmi va asosan, 60-yillarga kelib bartaraf etildi.

Urushdan keyingi davrda tasvir obyektini sifatida real voqelikka qattiq bog‘lanishga yo‘naltirilgan badiiy adabiyot tarixiy mavzularni chetlab o‘tishga majbur bo‘ldi. Shaxsga sig‘inish oqibatlari fosh etilgachgina mazmun va g‘oya ustuvorligi, obrazlar olamidagi ijtimoiy-siyosiy tashviqiylik va balandparvoqlik ruhi ustuvor “*asar*” larni rag‘batlantirishga barham berildi. Mumtoz merosimizni atroflicha o‘rganish, tarixiy shaxslar va tarixiy mavzu poetik tadqiqiga e’tibor ortdi. Adabiy biografik ocherk, umumlashtiruvchi (*obzor*) maqola va tadqiqotlar yaratildi. Adabiy tanqidchilik professional malakasini oshirish yo‘lida izlanishlar yo‘liga chiqib oldi. Darslikda mazkur jarayonlar H.Abdusamatov, L.Qayumov singari munaqqidlar faoliyati misolida zamonaviylik, g‘oyaviylik, badiiylik, badiiy konflikt, qahramon, tipiklik muammolari bilan bog‘liqlikda keng tarzda yoritilgan.

v) *XX asrning 60-90- yillari tanqidchiligining o‘ziga xos xususiyatlari. Istiqloq shabadalari va adabiy tanqid.* Ushbu bo‘limda asosan, Oybek, I.Sulton, H.Yoqubov, M.Qo‘shjonov, S.Mamajonov, N.Xudoyberganov, I.G‘afurov singari adabiyotshunos va munaqqidlar faoliyatiga keng to‘xtaliingan.

Ma’lumki, istiqloqligacha bo‘lgan yetmish besh yillik ulkan tarixiy davrda badiiy adabiyot va adabiy tanqid ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarning o‘ziga xos badiiy in’ikosiga aylanib, asosan, mafkuraviy qurol vazifasini o‘tadi. Ammo o‘tgan asrning 60-yillarida yuzaga kelgan “*nisbiy erkinlik*”, 80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan “*qayta qurish va oshkoralik*” singari davrlarda adabiyot va san’at olamiga yangi kuchlarning kelib qo‘shilishi badiiy adabiyot ichki qonuniyatlarini

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

to‘g‘ri idrok etish imkonlarini ham bera boshladi. Darhaqiqat, iste‘dodlarning milliy zaminda turib, jahon adabiy-estetik tafakkuri umumbashariy yo‘nalishlarida kechayotgan jarayonlarni o‘zlashtirishi, ularga ijodiy yondashuvi siyosiy-mafkuraviy zo‘ravonlik qoliplari doirasini yorib chiqishga yo‘l ochdi.

XX asrning 60-90- yillarida realizm uchun kurash bir nafas ham to‘xtamadi. Yetuk badiiy asarlar yuzaga keldi. Badiiy mahorat yuksala borib, yangi tipdagi kitobxon ham o‘sib, o‘zgarib, shakllanib bordi. Tanqidchilar nafaqat uslub va mahorat, balki nazariy jihatdan-da o‘sib, adabiy jarayonga faol va izchil munosabat bildirishga urinishdi. Aytish mumkinki, adabiy tanqidda o‘ziga xos bir ko‘tarilish namoyon bo‘ldi. Jumladan, tur va janrlarning taraqqiyot yo‘llarini tadqiq etuvchi tadqiqotlar yuzaga keldi. Ko‘plab adabiy-ijodiy portretlar yaratildi. Tarixiylik va zamonaviylik, an‘ana va mahorat masalalari faol o‘rganildi. Dunyo adabiy-tanqidiy tajribalari ta‘sirida ilmiy-estetik tahlil teranlashdi. Lirik va lirik qahramon muammolariga bag‘ishlangan qizg‘in bahslar bo‘lib o‘tdi. Estetik talabchanlik ortib bordi.

Shubhasiz, bunday ijobiy hodisalar hayotni pardozlab tasvirlash, adabiy asarni kundalik siyosat nuqtayi nazaridan tahlil qilish illatlaridan qutula borgan adabiy tanqidning adabiy jarayonga ta‘siri bilan ham bog‘liqdir. Albatta, adabiy tanqidchilik g‘oyaviy-siyosiy yondashuv, ofarinbozlik, sxematizm, sotsiologik tahlil va mavzu dolzarbligiga e‘tibor berishdan butkul qutula olmadi. Janrlar rang-barangligi, adabiyot va tanqid nazariyasi muammolariga nisbatan kamroq ahamiyat qaratdi. Ammo uning tabiatida qator sifat o‘zgarishlari yuzaga keldi. Jumladan, adabiy tanqid badiiy yaratq bag‘riga ijodkor qalb prizmasi orqali kirib borish sari yuz burdi. Yaratilgan asarlarni badiiyati, tili, san‘atkor mahorati nuqtayi nazaridan estetik tahlil qilishga o‘ta boshladi. Muammoli maqola hamda fundamental xarakterdagi tadqiqotlar yuzaga keldi. Adabiy aloqalar va adabiy ta‘sir masalalari, folklor va adabiy jarayon munosabatlari tahliliga e‘tibor ortdi. Bularning barchasi, u mahorat sirlarini egallayotganligining yorqin nishonalari edi.

Darhaqiqat, endilikda munaqqid sanitarlik, sharhlovchilikdan mutafakkir va yozuvchi, talqin qiluvchi va baholovchiga aylandi. Nasr, she‘riyat, dramaturgiya, bolalar adabiyoti, publitsistika, tarjimashunoslik, tanqidchilik tarixi singari qator sohalar keng rivojlandi. Konflikt, kompozitsiya, badiiy asar tili, uslub, ijodiy metod singari muammolar atrofida bo‘lib o‘tgan qizg‘in bahslar ilmiy teranlik kasb eta bordi. Tarixiy-biografik ocherk, adabiy portret singari janrlar rivoj topdi. Ilmiy-fantastik asarlar tanqidchiligi yuzaga keldi. Adabiy tanqidiy asarlar xorijiy tillarda nashr etilidigina emas, balki o‘zbek adabiyoti ham jahon adabiyoti aspektida o‘rganila boshladi. Darslikda mazkur jarayonlar umumlashtiruvchi mavzular bilan bir qatorda

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

tanqidda munaqqidning o‘rni masalasi bilan chambarchas bog‘liqlikda S.Mirvaliyev, N.Shukurov, S.Aliyev, P.Shermuhamedov, B.Sarimsoqov, A.Kattabekov adabiy tanqidiy faoliyatlari misolida batafsil yoritilgan.

Darslikning *“Istiqlol davri o‘zbek adabiy tanqidchiligi”* (XX asrning 90-yillaridan XXI asr boshlari) deb nomlanuvchi uchinchi bo‘limida mafkura tushovlaridan qutulib, erkin ijod yo‘liga o‘tgan adabiy tanqid tarixi xususan, mumtoz adabiyot va uning yorqin siymolari ijodini o‘rganish, sho‘ro bosqichi adabiyoti namunalarini qayta baholash, qatag‘on etilgan adiblarga munosabat, yangilanayotgan metodologiya masalalari, tahlil va talqin (*adabiy matnni o‘qish, o‘zlashtirish*) yo‘sinlariga e‘tiborning ortishi kabi ko‘plab muammolar milliy g‘oya va umumbashariy mezonlar nuqtayi nazaridan yoritilgan. Bunda O.Sharafiddinov, N.Karimov, U.Normatov, B.Nazarov, A.Rasulov, I.Haqqul adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchilik faoliyati atroflicha bayon qilinadi. Shuningdek, darslikda S.Sodiq, H.Umurov, N.Rahimjonov, X.Do‘stmuhammad, Sh.Rizayev, D.Quronov, U.Hamdani, B.Karimov singari davr adabiy tanqidiy tafakkurida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan olimlar hayoti va faoliyatiga ham to‘xtalangan.

Darslikning so‘nggi bo‘limi *“O‘zbek adabiy tanqidining janriy tarkibi”* deb nomlangan. Mazkur bo‘limda estetik tafakkur taraqqiyotining turli davrlarida yuzaga kelgan adabiy tanqidiy asarlar hajmi va oldiga qo‘ygan vazifalariga ko‘ra quyidagi uch guruhga bo‘lib o‘rganilgan:

1. *Ixcham va hozirjavob janrlar*: (taqriz, obzor, muammoli adabiy-tanqidiy maqola). 2. *Yetakchi xususiyatlarini tarixiy-biografik yondashuv belgilovchi janrlar*: (tanqidiy-biografik ocherk, adabiy portret, badiia (esse), monografiya). 3. *Adabiy muloqotga asoslangan janrlar*: (adabiy-tanqidiy maktub va adabiy-tanqidiy suhbat) Ta’kidlash o‘rinliki, har bir janr o‘z tabiati, genezisi, estetik tafakkur taraqqiyotidagi o‘rniga ko‘ra keng yoritilgan va ichki shakllarga ajratilgan.

Darslikning o‘ziga xos qator xarakterli xususiyatlari mavjud.

1. Ma’lumki, bir vaqtlar darsliklarda bahstlab o‘rinlar bo‘lmasligi lozim. Unda faqat ilmiy-adabiy jamoatchilik tomonidan e’tirof etilgan va ommaviy tarzda o‘z tasdig‘ini topgan qarashlarnigina ilgari surish lozim deb qaralar edi. Bugungi kunda ham ayrim olimlarimiz xuddi shu nuqtayi nazarni ma’qullashadi. *“O‘zbek adabiy tanqidi tarixi”* mualliflari esa, masalaga birmuncha boshqacharoq yondashadilar. Ularning fikricha, darslikda munozarali fikrlar bayon qilinishi, bahsli muammolar o‘rtaga tashlanishi, ularga turli rakurslardan munosabat bildirilishi, ayrim hollarda esa, muayyan masala yuzasidan ikki xil fikr aytilishi va hatto ayrimlari ochiq qoldirilishi ham mumkin. Zotan, ayni holat talabalarda mustaqil mushohada

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

malakasini uyg‘otish va rivojlantirishga muayyan turtki beradi. Ularni ijodiy jarayonni kechinishga da’vat etadi.

2. Darslikda ayrim maqola, tadqiqot yoxud monografiya xususida so‘z ketar ekan, u haqdagi fikr-mulohazalar dastlab obzor xarakteridagi qismlarda, so‘ngra esa adabiy portretga doir o‘rinlarda berilgan. Zohiran qaralganida, bu takror yoxud qaytariqqa o‘xshab ko‘rinadi. Ammo darslik mualliflari bunday yo‘l tutishdan quyidagi maqsadlarni nazarda tutishgan:

Birinchidan, tahlilga tortilayotgan ishning adabiy-tanqidiy jarayondagi o‘rnini belgilash. *Ikkinchidan*, uning munaqqid ijodiy faoliyatidagi ahamiyatini ko‘rsatish. *Uchinchidan*, muallif va talabalar tomonidan bu ishlarning o‘zlashtirilishida mustaqil mushohadalarni uyg‘otish hamda ularni qayta nazardan o‘tkazish orqali tasavvur va tafakkurdagi o‘rnini mustahkamlash.

Ko‘rinadiki, so‘z yuritilayotgan darslikda o‘zbek adabiy tanqidining fan va san’at uyg‘unligidan iborat hodisa ekanligi, milliy adabiy-tanqidiy tafakkurning uyg‘onishi, shakllanishi va rivojlanish tarixi, o‘ziga xos taraqqiyot bosqichlari boy faktik materiallar hamda jahon adabiy-estetik tafakkurida kechayotgan jarayonlarga hamohanglik asosida teran yoritilgan. Tanqidchiligimizning yorqin namoyandalari ilmiy tanqidiy faoliyatlari, adabiy tanqid janrlari haqida keng ko‘lamli ma’lumotlar berilgan. Ta’kidlash o‘rinliki, har bir mavzu maxsus reja, mustahkamlovchi savollar, tayanch tushunchalar va mustaqil o‘qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati kabi metodik ko‘rsatmalar bilan ta’minlangan.

Anglashiladiki, ustoz olimlarimizning ko‘p yillik ilmiy-ijodiy izlanishlari, metodik va metodologik tavsiyalari asosida yuzaga kelgan mazkur tadqiqot XX asr o‘zbek adabiy tanqidi tarixini istiqloq mafkurasi asosida yaxlit bir tizim sifatida o‘rganuvchi o‘z vaqtida yaratilgan g‘oyatda zarur darslikdir.

XX asr o‘zbek adabiyoti jamiyat hayotidagi bir qator yirik voqealarga chuqur poetik yondashib, kishilarni ularning tub mohiyatini idrok etish va to‘g‘ri munosabat bildirishga undadi. Ijtimoiy-siyosiy, adabiy-madaniy o‘zgarish va ziddiyatlarga benihoya boy bo‘lgan o‘tgan asr va unda umrguzaronlik qilgan davr odamlari ma’naviy-ruhiy dunyosida kechgan po‘rtanalarni aks ettirdi. Ayrim nomarg‘ub jihatlari ustidan poetik hukm chiqardi. Shu jarayonlarni muayyan darajada umumlashtirishni ko‘zlagan Q.Qahramonov OTMlari O‘zbek tili va adabiyoti fakultetlari bakalavriat bosqichi talabalari uchun “*O‘zbek adabiyoti tarixi*” fanidan tayyorlagan “*XX asr o‘zbek adabiyoti*” va OTMlari O‘zbek tili va adabiyoti

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan magistrilariga mo‘ljallangan “XX asr she‘riyati (20-30 yillar)” singari uslubiy qo‘llanmalari muhim ahamiyatga molikdir.³

Zotan, ularda o‘tgan asr o‘zbek adabiyotining zabardast vakillari: A.Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, U.Nosir, Oybek, M.Shayxzoda va boshqa shoir, adib, dramaturg va tarjimonlarning ijodi yangicha yondashuv asosida tahlilga tortildi. Ikkinchi jahon urushi davri o‘zbek adabiyotida yetakchilik qilgan tendensiyalar, g‘oya va motivlar xususida qimmatli mulohazalar ilgari surildi. Shuningdek, E.Vohidovning “Yoshlik devoni” va dostonlarida an‘ana va poetik mahorat, A.Oripov she‘riyati falsafiy, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari va dostonlarida umuminsoniy g‘oyalar talqini singari muammolar tahlili tadqiq etildi.

Umuman, mazkur darslik va o‘quv qo‘llanmalari muallif (*mualliflar*) ning keyingi yillardagi teran va inja kuzatishlari samarasi ekani, ularda ilgari surilgan ohorli fikr-qarashlar mustaqillik davri adabiy-estetik tafakkurida kechayotgan yangilanish, tozarish jarayonlariga hamohang ekani, muammolar turli rakurslardan yoritilgani bilan ilmiy-nazariy va amaliy qimmat kasb etadi. Shuning uchun ham ulardan nafaqat talaba va magistrilar, balki stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar, o‘qituvchilar, adabiyot va san‘at muhoblari ham bahramand bo‘lishmoqda.

5. Monografik tadqiqotlarda olim ilmiy-ijodiy kredosi

Q.Qahramonovning monografik izlanishlari mustaqilligimiz bilan tengdosh bo‘lib, 1991-yilda uning “Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti”⁴ nomli ilk monografiyasi ilmiy-adabiy jamoatchilik va keng kitobxonlar qo‘liga tegdi. Unda o‘tgan asrning 30-80-yillari adabiy tanqididagi bolalar adabiyoti spetsifikasiga oid kuzatishlar tahlilga tortildi. Olimning diqqati badiiy ijodda inson omiliga e‘tiborni kuchaytirish, poetik asarni turli rakurslardan turib g‘oyaviy-badiiy va estetik jihatdan obyektiv tahlil etish, yetuk ideallar asosida baholash orqali tanqidning adabiy jarayonga faol ta‘sir etishini ta‘minlashga qaratildi. U fanning muhim vazifalari sifatida: so‘z san‘atkorlari g‘oyaviy fikr doirasini kengaytirish va haqqoniylik bobidagi mahoratini takomillashtirishga ko‘maklashish, poetik yaratishlarni yaxlit adabiy jarayon kontekstida kuzatish, hayot haqiqati hamda badiiy adabiyot, ijodkor va kitobxon munosabatlarini uyg‘unlashtirish, ayrim nuqsonlarni bartaraf qilish uchun kurashishdek realizm prinsiplariga xos estetik talablarni qo‘ydi. Shuning uchun ham o‘smirlar adabiyoti kichkintoylar dunyoqarashini aniq va ravshan badiiy

³ Qahramonov Q XX asr o‘zbek adabiyoti. Bakalavriat bosqichi talabalari uchun mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanma. T.: 2014; Qahramonov Q XX asr o‘zbek she‘riyati. (20-30 yillar) Magistratura bosqichi talabalari uchun mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanma. T.: 2014

⁴ Qahramonov Q. Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti. Monografiya. T.: “Fan”, 1991.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

tasvirlash orqali yosh avlodni umuminsoniylik jihatidan har tomonlama mukammal, ma’naviy sog‘lom, ruhan bardam qilib tarbiyalashning ta’sirchan quroli deb bildi.

Demak, olim umuman adabiyot nazariyasi va adabiy tanqidchilikda I.Sulton, H.Yoqubov, M.Qo‘shjonov, U.Normatov, B.Nazarov, B.Imomov, xususan, bolalar adabiyoti tanqidchiligining adabiy jarayonga ta’siri masalasini maxsus o‘rganish bobida esa H.Abdusamatov, H.Umurov, P.Shermuhamedov, O.Safarov, M.Nurmatov, O.O‘tayeov kabi turli avlodga mansub olimlarning yangi izdoshi sifatida ko‘zga tashlandi.

Monografiyada bolalar adabiyoti tanqidchiligi shakllanish davri sifatida 30-50-yillar belgilansa, uning yangilanish davri 50-yillarning ikkinchi yarmidan keyingi “*nisbiy erkinlik*” davridan boshlanib, rivoji 70-80-yillarga kelib tutashadi. Ijobiy qaramon masalasiga munosabat bildirish asnosida munaqqid alohida odamning betakror individ ekaniga diqqat qaratdi. Hayotiylikni ta’minlashda qahramonni o‘z “*mikromuhiti*” dan ajratmay tasvirlash, ruhiyatida kechgan psixologik konflikt va kolliziyaga diqqat qaratishni yoqladi. Har bir konkret asarga uning janr tabiati, poetik matni, obraz nechog‘lik to‘laqonli ekani, ifoda usuli, ijodkor pozitsiyasi, mahoratidan kelib chiqib individual munosabat bildirish lozimligini ta’kidladi. Shu konsepsiyasi asosida 1976-1984-yillarda “*ijobiy qahramon*” muammosi atrofida uyushtirilgan bahs-munozaralarga faol munosabat bildirdi.

Munaqqid haqqoniylik, hayotiylik, g‘oyaviy-badiiy barkamollik, tarbiyaviylik, ijodkor mahorati singari pozitsiyalarda sobit turib Hamza, G‘.G‘ulom, H.Olimjon, Oybek, Z.Diyor, S.Jo‘ra, Q.Muhammadiy, I.Muslim, Sh.Sa’dulla, Q.Hikmat, T.Adashboyev, M.A’zam, Q.O‘tayeov, A.Obidjon, S.Barnoyev, R.Tolipov, K.Turdiyeva kabi shoirlar, H.Nazir, K.Ikromov, X.To‘xtaboyev, N.Fozilov, H.Po‘lat, L.Mahmudov, F.Musajonov va boshqa nosirlar yaratgan ko‘plab asarlarni konseptual tahlil va tadqiq etdi. Bolalikning beg‘ubor olami, kichkintoylar xarakterining betakror xususiyatlari badiiy mukammal aks etgan asarlarni yoqladi. Monografiyada olim kuzatishlari negizini: bolalar adabiyoti spetsifikasi, ijodkor dunyoqarashi, hayotiy va poetik hukmi, to‘laqonli ijoiy qahramon yaratish, syujet va konflikt mutanosibligini ta’minlashdagi san’atkorlik mahorati, individual uslubi singari ilmiy-nazariy nuqtayi nazarlarga asoslanish tashkil etdi.

Q.Qahramonov keyinchalik metodologiya masalalari bilan jiddiy shug‘ullangan bo‘lsa ham, bolalar adabiyoti tanqidchiligi muammolaridan butkul uzoqlashib ketmadi. Masalan, uning “*Bolalikka oshufta ko‘ngil*” (*Qambar ota ijodiga chizgilar*)

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

risolasi⁵ bolalar adabiyoti namoyandalari adabiy portretlarini yaratish, ijodkor mahoratini belgilovchi omillarni aniqlash yo‘lidagi jiddiy kuzatishlardan biridir.

Zotan, munaqqid shoir Qambar O‘tayev (*Qambarali, Qambar Ota O‘ta baxshi o‘g‘li, Qambar Ota*) hayot va ijod yo‘lini uning poetik yaratilishiga zeb beruvchi insoniy tabiatiga xos beg‘ubor soddalik, to‘g‘riso‘zlik, samimiyat hamda milliy iftixor tuyg‘ularidan ajratmay tahlilu tadqiq etdi. O‘ttizga yaqin to‘plamlaridagi bitiklarini topqirlik, haqqoniylik, tasvir soddaligi, shartlilik, favquloddalik, majoziylik, qisqa va ixchamlik, badiiy detal hamda poetik obrazlar tiniqligi, obrazlilik o‘ynoqi ohang hamda yumorning mazmunga uyg‘un kelishi nuqtayi nazaridan kuzatdi. Shoir ijodini T.Adashboyev, A.Obidjon, A.Ko‘chimov, R.Tolib kabi zamondosh bolalar shoirlari majoziy bitiklari bilan qiyosan o‘rgandi. Kontrast tasvir va ifoda go‘zalligini kashf etibgina qolmay, o‘rni bilan quruq didaktika unsurlari yorqin seziluvchi ayrim asarlarini asosli tarzda tanqid qildi.

Q.Qahramonovning “*Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari*”⁶ monografiyasi istiqloq davri o‘zbek tanqidchiligini yangicha ilmiy tafakkur va konsepsiyalar bilan bog‘liq holda tadqiq etish va tanqidiy faoliyatning yetakchi xususiyatlarini aniqlashdek dolzarb ilmiy muammoni o‘rganishga bag‘ishlangandir. Monografiyada olim mustaqillik davrida yaratilgan adabiy-tanqidiy materiallarni adabiyotshunoslik metodologiyasi nuqtayi nazaridan tadqiq etdi. U istiqloq davri adabiy tanqidchiligining sho‘ro davri metodologiyasidan farq qiluvchi konsepsiya, yo‘nalish va tamoyillarini o‘rgandi. Qariyb qirq yillik muddat, ya‘ni o‘tgan asrning 70-90-yillaridan bizning kunlarimizgacha bo‘lgan davrda adabiy tanqid metodologiyasi bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy-nazariy izlanishlarni o‘rganibgina qolmay, ularning yutuq va nuqsonlarini ham belgilab berdi. Ular ratsional mag‘zini ijodiy umumlashtirib, nazariy asos sifatida tayanish yo‘lidan bordi Jahon va rus adabiyotshunosligi taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan olimlar bilan bir qatorda, o‘zbek nazariyotchilarining adabiyotshunoslik va adabiy tanqid metodologiyasi bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlariga, tayangan holda tadqiqotning nazariy yo‘nalishlari va tahlil usullarini belgilab oldi.

Kitob muallifi istiqloq davrida yaratilgan va metodologik yangilanishlarga xizmat qiladigan qodiriyshunoslik, cho‘lponshunoslik, fitratshunoslik, o‘zbekshunoslik, qahhorshunoslik, shuningdek G‘.G‘ulom, H.Olimjon, O.Yoqubov, P.Qodirov, E.Vohidov, A.Oripov, O‘.Hoshimov, Sh.Xolmirzayev singari ko‘plab yozuvchi hamda shoirlar ijodiga oid monografiya va to‘plamlar, harakatdagi adabiy

⁵ Qahramonov Q. Bolalikka oshufta ko‘ngil. (Qambar ota ijodiga chizgilar) Risola. – T.: “Turon zamin ziyo”. 2014.

⁶ Qahramonov Q. Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari. Monografiya. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

jarayon, davriy matbuotda chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalar hamda bahs-munozaralarni tadqiqot manbai sifatida belgilab, ularni tahlil va tadqiq etdi. Tadqiqot mohiyatiga ko‘ra, o‘rni bilan jahon va rus adabiyotshunosligi, adabiyot nazariyasi va tanqidchiligiga doir manbalarga ham munosabat bildirdi. Jumladan, E.Olvort, E.Nabi, M.Murfe, N.Tun, I.Baldauf kabi xorijlik tadqiqotchilarning turli davrlardagi maqolalarini keng qiyosiy tahlilga tortdi.

Adabiy tanqid metodologiyasining yangilanish jarayonlari, omillari hamda asoslarini o‘rgangan olim adabiy tanqid metodologiyasi va adabiyot nazariyasiga o‘zining mualliflik ta’riflarini ishlab chiqdi. Istiqlol davri tanqidchiligining ustuvor tamoyillarini aniqladi. Adabiyot ilmi oldidagi dolzarb vazifalarni to‘g‘ri belgiladi. Mavjud qarashlarning xarakterli jihatlarini sintezlashtirib, badiiyat umumiy qonuniyatlari va estetik tamoyillarini ko‘rsatib berdi. Shu asosda adabiy tanqid metodologiyasi hurfikrlilikka asoslangan konsepsiyasini yaratishga intildi. Ijtimoiy, ruhiy va badiiy holatlarni bir butunlikda tahlilga tortish konsepsiyasini yoqladi. Ishning xarakteridan kelib chiqib, sistemali, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-madaniy hamda analitik metodlardan barakali foydalandi.

Nazariyotchi adabiyotshunos sifatida XX asr o‘zbek adabiyotini qayta baholash muammolarini yoritarkan, jadidchilik va jadid adabiyotining umumestetik masalalari, XX asr adabiyotiga yaxlit metodologik munosabat, tanqidiy tafakkurdagi evrilishlar jarayoni bilan bog‘liq tadqiqotlarni tahlil va tasnif etdi. U tahlil-u tadqiq jarayonida turli xil ziddiyatli qarashlar ustidan uzil-kesil hukm chiqarish yo‘lidan bormadi. Badiiy asarni muayyan davr g‘oyasiga bog‘lamasdan, matnga tayanib tahlil etishni yoqladi. Asosiy e’tiborini adabiy tanqidiy manbalarning tanqidchilik tadrijiy takomili va metodologik tamoyillarni shakllantirishdagi rolga qaratdi.

Mustaqillik davri tanqidchiligi metodologiyasidagi yangilanish tamoyillaridan biri - sistemali tahlil metodi (*biografik, tarixiy-funksional, madaniy-tarixiy, ijtimoiy, qiyosiy, struktural tahlil kabi*) yetakchilik qilayotgani, tanqid estetikasi ham turfalashib borayotganini ko‘rsatib berdi. Istiqlol davri tanqidchiligiga kirib kelgan ko‘plab yangi tushuncha va tamoyillar: (*modernizm, ong oqimi, absurd* va b.)ning ilmiy tadqiq faoliyatida qo‘llanilishini kuzatib, shu asosda uning metodologik takomilini ko‘rsatdi.

Xullas, monografik tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, unda istiqloq davri tanqidchiligi metodologiyasining yangilanish jarayonlari va omillari, yetakchi tamoyillari jamlandi va nazariy-metodologik jihatdan umumlashtirildi. Shu materiallar ilk bor maxsus tadqiq etildi.

Darhaqiqat, mustaqillik davri adabiy tanqid taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Bu davrda hurfikrlilikka asoslangan yangicha ilmiy tafakkur shakllanib, poetik

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

asar tahlilida badiiy-estetik mezonlar yetakchilik qila boshladi. Natijada, inson tasviriga bo‘lgan munosabat ham tubdan yangilandi. Bu kabi o‘zgarishlarning yetakchi tamoyillari, yangilanish uchun asos bo‘lgan ichki va tashqi omillari xususiyatlari aniqlangani, metodologik tamoyillari tadqiq etilgani monografiyaning muhim yutuqlaridir. Binobarin, uning asosiy qoidalari, xulosa va tavsiyalari muhim amaliy qimmat ham kasb etadi.

Olimning yana bir monografik tadqiqoti iste’dodli shoir, yozuvchi, essenavis, publitsist va jamoat arbobi Abdusaid Ko‘chimov ijodi tadqiqiga bag‘ishlanib, **“Ijod va e’tiqod”** nomi ostida 2022-yilda shogirdi Feruza Burxanova bilan hammualiflikda yaratilgan. Monografiyada Abdusaid Ko‘chimovning ijodiy biografiyasi, poetik olami, ijodining yetakchi xususiyatlari va tamoyillari, essenavislik mahorati yoritilgan.

Monografiyaning kompozitsion qurilishi muqaddima, “Ko‘ngil mulkiga sayohat”, “Nasrnavislik mahorati”, “Adibning essenavislik mahorati” nomli uch bobdan iborat. Kitobning “Ko‘ngil mulkiga sayohat” nomli birinchi bobida shoirning “Qor”, “Muhabbat bog‘lari”, “Kuzgi osmon”, “Baland tog‘lar” kabi she’riy to‘plamiga kirgan she’rlari lirik qahramonning hayoti va ijod yo‘lini yorituvchi ochqichlar, ko‘ngil izhorlari sifatida tadqiq etilgan. Shoir she’riyatidagi poetik obraz, ramz va metaforalar, ritm va ohang, lirik “men”ning munosabati badiiy quvvat va estetik ta’sirchanlikni ta’minlovchi vositalar sifatida talqin etilgan. Shuningdek, kitobda, shoirning bolalar she’riyatiga bag‘ishlangan bir turkum she’rlarida hayotiylik, samimiy ruh ustuvorlik qilishi, asarlarining ma’rifiy-estetik ahamiyati xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, A.Ko‘chimovning Ona vatan mavzusiga bag‘ishlangan bir turkum she’rlari, jumladan, “Vatan”, “Istiqlol qo‘shig‘i”, “Iltijo” kabi namunalarida lirik qahramonning jo‘shqin, ogohlikka da’vat etuvchi sermavj to‘yg‘ulari ifodalanishi, ijtimoiy-estetik motivlarlarning ustuvorlikgi masalalarini e’tibor qaratiladi. Shu jihatdan, shoirning “Demokratiya”, “Yollangan muxbir”, “Armon”, “Abdulhamid Cho‘lpon faryodi”, “O‘zbek iston qayda bor” kabi she’rlari talqini xarakterli bo‘lib, ularda millatparvarlik, vatanparvarlik motivlarining yetakchilik qilishi, beorom qalb tug‘yonlari, vatanga bo‘lgan mehri qanchalik yuksak bo‘lsa, g‘animlarga nafrati ham shuncha kuchli ekaniga urg‘u qaratiladi. Shoir lirikasi tahlili asnosida, she’riyatini birlashtirib, bir nuqtaga jamlab turadigan eng muhim xususiyat insoniylik, insoniy tuyg‘ularning tarannum etilishi ijodining bosh konsepsiyasi ekani asoslanadi, shoir shaxsiyatining pokdomonligi ko‘rsatiladi. Monografiyaning “Nasrnavislik mahorati” nomli ikkinchi bobida ham bolalarning, ham kattalarning ma’naviy olamini boyitishga birdek xizmat qilayotgan “Oq kaptarlar oroli”, “Halqa”, “O‘g‘il”, “Qochoq”, “Peshona”, “Binafsha”, “Baland

tog‘lar kabi” qissa va hikoyalarida ilgari surilgan g‘oyaviy-badiiy mazmun, obrazlar tasnifi yozuvchining poetik mahorati nuqtayi nazaridan tahlilga tortiladi. Yozuvchi asarlarida ijtimoiy-ma’naviy muammolar inson taqdiri, qismati bilan bog‘liq holda yoritilgani, ularda o‘tish davriga xos bo‘lgan ijtimoiy-psixologik murakkabliklar, ziddiyatli jarayonlar inson kechinmalari, ruhiy holatlar fonida badiiy tasvirlangani tadqiq etiladi. Kitobning “Adibning essenavislik mahorati” nomli so‘ngi bobida Abdusaid Ko‘chimovning “Buni hayot deydilar...” kitobida kiritilgan esselari tahlil etiladi. Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Shukrullo, O‘tkir Hoshimov, Barot Bayqobilov, Ma’ruf Jalil, Pirmat Shermuhamedov, Mahmud Sa’diy, Shamsi Odil, Azim Suyun, Qozoqboy Yo‘ldoshev kabi ijodkorlarning portretiga chizgilar berilib, ularning shaxsiyati, dunyoqarashi, orzu-umidlari, ijodiy faoliyati, ruhiyati va o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgani, shu asnoda muallifning ijtimoiy-ma’naviy va adabiy muammolarga munosabati ham ochilib borishi yoritiladi. Esselarda muallifning ustozlarga bo‘lgan cheksiz mehri, hurmati va ehtiromi ham aks ettishi, umuman, kitobga kirgan har bir ijodkorga muallifning yuksak hurmati va ehtiromi namoyon bo‘lishi, eng muhimi, ijodkorlar shaxsiyati, ijodiy olami mahorat bilan yoritilgani uning ma’rifiy-estetik qimmatini oshirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi. A.Ko‘chimov yaratgan esselarda yetuk iste’dod sohiblari, adabiyotimizning darg‘alari hisoblangan Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Abdulla Oripov, Pirmat Shermuhamedov kabi ijodkorlarning jonli va hayotiy siymolari, obrazlari o‘ziga xos shakl va ifodalarda, hayotiy lavhalarda, badiiylik bilan publitsistik ruhning uyg‘unligida yaratilgani essechiligimizning muhim yutug‘i sifatida baholanadi.

6. Badiiy so‘z qudrati

So‘zga e’tibor, uning nafis jilosi, ma’no qudrati, estetik ta’sirchanligi, g‘oyaviy niyat ijrosiga yo‘naltirilishi, ijodkor poetik mahorati singari masalalarga munosabatda Qurdosh Qahramonov zakosi yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. O‘n sakkiz ming olam va yetti-sakkiz milliard odamning ibtidosi va intihosi so‘z bilan chambarchas bog‘liq ekanini hissiy idrok etuvchi olim so‘zni ilohiy ne’mat deb biladi. Uning sehr va mehr ulashish kuchini hamisha muqaddas tutibgina qolmay, kalom ahlini e’zozlab keladi. Zotan so‘zning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va insonning o‘zligi uning so‘zi bilan bog‘liq ekanligini uqtirgan hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiy ham:

So‘z durki, nishon berur o‘lukka jondin,

So‘z durki, berur jonga xabar jonondin.

Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,

Bilkim, guhari sharifroq, yo‘q ondin

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

deya ta’kidlagan edilar. So‘zga “guhari sharif”lik darajasini bergan ulug‘ ustozlarga ergashgan olim nafis so‘z orqali shoir-u adibning, olim-u fuzaloning ma’naviyati, ruhiy olamini anglashga intiladi. Dono xalqimizning: “So‘zdan so‘zning farqi bor, o‘ttiz ikki narxi bor”- degan maqoliga amal qilib, adabiy-badiiy asarlar matni mag‘zidan, uning ijodkori qalbiga kirib borishga intiladi. Uning did va ta’bi haqida fikr-mulohaza yuritishga harakat qiladi. Zotan, badiiy nutq ichki hodisa bo‘lib, uning zohirda moddiylashuvidan adabiyot yuzaga keladi.

Demak, Qurdosh Qahramonov o‘zining ko‘p yillik izlanishlaridan jamlangan qo‘lingizdagi maqolalar to‘plamini: “Badiiy so‘z qudrati”, deb atashi ham bejiz emas. Kitob arxitektonik jihatdan uch bo‘limdan tarkib topgan. “*Globalashuv va adabiy jarayon*” nomli ilk bo‘limda asosiy e’tibor dastavval globalashuv tushunchasi va uning yetakchi belgilarini aniqlashtirib olishga qaratilgan. Zotan, hodisaning asl mohiyati va yuzaga kelish omillarini aniqlashtirmay turib, uning adabiyot maydoniga kirib kelishi va yetakchi belgisiga aylanishi haqida so‘zlash imkonsiz edi. Bizning zamonamizda jahon xalqlarining nainki, ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy va madaniy-ma’rifiy sohalarda ham o‘zaro integratsiyalashuvi, olamning yagona ekspsixologik maydonga aylanish jarayonlari mislsiz kengaydi. Vaqt shiddati ortib, hayot maromi jadallashdi. Modernizm va postmodernizmdan globalizm davriga o‘tilishi tufayli inson psixikasi va dunyoqarashida sodir bo‘layotgan misli ko‘rilmagan o‘zgarishlarning badiiy idrok etilish jarayonlari Q.Qahramonov e’tiborini jalb qiladi. U jahonda kechayotgan va mislsiz falokatlariga doya bo‘lishi ehtimoli kuchli voqea-hodisalar: (*axloqsizlik, giyohvandlik, zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm, terrorizm, ekstrimizm, ekologik inqiroz, irqchilik, genotsid, migratsiya, odam savdosi* va b.) endilikda bir mamlakat doirasidan chiqib, umuminsoniy miqyosga ega bo‘la boshlaganini sezgirlik bilan ilg‘aydi. Shuning uchun ham, butun zamon va zamin, koinot qismati, inson taqdiri, nabotot hamda jamodot olamining buguni va ertasi bilan bog‘liq muammolarni muhokama-munozara markaziga olib chiqadi. So‘ngra badiiy nasrda zamondosh obrazi va ayniqsa, ayol qismatining global tasvirlariga e’tibor qaratadi. Umuman esa, globalashuv fenomeni va badiiy adabiyot muammolaridan so‘zlaydi.

U adabiy-badiiy asarlarga eskicha yondashuvlardan asosli tarzda, butkul voz kechish, yangicha munosabatlarni shakllantirish, ularni milliy va jahoniy estetik miqyoslarga muvofiq tarzda saralash hamda tarixiylik nuqtayi nazaridan qayta idrok etish yo‘lini tanlaydi. Shoir, nosir hamda munaqqidlar: O.Yoqubov, A.Oripov, M.Qo‘shjonov, Shukrullo, O.Sharafiddinov, B.Nazarov, U.Normatov, I.G‘afurov, Tohir Malik, A.Otaboy, X.Do‘stmuhammad, T.Qahhor badiiy-estetik qarashlarini imkon qadar tahlil qilishga intiladi. Adabiy muammolarni Sharq va G‘arb falsafasi

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

hamda estetikasidagi yetakchi metodologik tamoyillar bilan bog‘lab talqin qiladi. Milliy-mental fazilatlarini asrab-avaylashga chorlaydi, ogohlikka da‘vat etadi.

Adabiyotshunos olim global muammolar tuyg‘ularga yo‘g‘rilib, she‘riy satrlarga ko‘chishini R.Parfi, U.Azim, Sh.Rahmon, E.Shukur, S.Sayyid, A.Sher, S.Hakim, A.Ko‘chimov, R.Mirvohid kabi turfa avlodga mansub shoirlar ijodi misolida kuzatar ekan, ko‘ngil kechinmalari nechog‘lik samimiy va obrazli; badiiy ifoda qanchalik yuqumli ekaniga diqqat qaratadi. Zamonaviy she‘riyatda Navoiy obrazining poetik talqinlarini tahlilga tortadi. Shuningdek, H.Xudoyberdiyeva, Z.Mo‘minova, O‘ktamoy, F.Afro‘z, X.Rustamova, Muslimabonu, Oydiniso, Z.Mirzo kabi xotin-qiz shoirlar ijodida faol qo‘llanilgan ishq motivi bilan chambarchas bog‘liq: *tun, yog‘du, maysa, daraxt, shamol, daryo, bir tomchi suv, samo, zamin, dunyo, otash, tush* kabi poetik obrazlarning ayol ruhiyatini ochib berishga yo‘naltirilishini o‘rganadi.

Adabiy tanqid va jarayon muammolarini 2015-yil materiallari asosida tahlilga tortgan olim U.Normatovning “Ijodkorning haroratli so‘zi”, N.Jabborovning “Zamon. Mezon. She‘riyat”, R.Rahmatning “Adabiyotdan chiqish”, U.Jo‘raqulovning “Nazariy poetika masalalari” kitoblari, N.Karimovning “Oybek gulshanidan shabadalar”, B.Nazarovning “Cho‘li iroq” risolalari, N.Karimovning “Zulfiya” ma‘rifiy-biografik ocherki, N.Rahimjonovning “Qodiriyshunoslik qirralari” essesini tahlilga tortib, ularning yutuqlarini e‘tirof etadi va ayrim mulohazalarini bayon etadi. Ayni paytda, “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” turkumi yuz jildligi dastlabki to‘rt jildi, H.Boltaboyev qalamiga mansub ko‘p jildlik “Adabiyot ensiklopediyasi”ning dastlabki jildi, U.Hamdanning “Sharq yulduzi” jurnalida uyushtirgan “Yangi avlod ovozi”, “Muallif o‘limi”ga doir suhbatlari “Istiqlol. Adabiyot. Tanqid” tarzida bir jildga jamlanishi kabi yutuqlar haqida ham iliq fikrlarni ilgari suradi.

Q.Qahramonov J.Fozilning “Xongul”, A.Sodiqovning “Tushlarimga kiring, onajon”, A.Rahimovning “Matonat”, Sh.Nizomning “Istig‘for”, Sh.Sulaymonning “Uchinchi palata”, I.Sultonning “Hazrati Xizr izidan”, Bobo Ravshanning “Shom va tong orasida”, O.Jumaboyevning “Uy” qissalarini adabiy qahramon talqini nuqtayi nazaridan kuzatadi. Olim N.Norqobilovning “Yuzma-yuz”, “Qoyalar ham yig‘laydi”, “Tog‘dagi yolg‘iz odam” qissalari hamda “Qoraquyun” romanini qahramonlarini tabiat va inson tasvirida ma‘naviyat muammolariga e‘tibor kuchliligi jihatidan tahlilga tortadi.

Kitobda akademik Matyoqub Qo‘shjonovning Abdulla Qodiriy, Oybek va Abdulla Qahhor haqidagi fundamental tadqiqotlari hamda dolzarb mavzulardagi o‘nlab maqolalari misolida XX asr o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi taraqqiyotiga qo‘shgan beqiyos hissasi oydinlashtiriladi.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Q.Qahramonov prof. U.Normatovning “Qodiriy bog‘i”, “O‘tgan kunlar” hayrati”, “Qodiriy mo‘jizasi” “Mahorat sirlari”, “Qahhorni anglash mashaqqati”, “Ustoz ibrati” kabi kitoblari hamda o‘nlab maqolalarini tahlilga tortadi. Olim munaqqidlik mahoratini badiiyat qonuniyatlarini teran anglashda, so‘z san‘atining eskirmas qoidasi insonshunoslik ekanini qalban his etishda va tahlil hamda talqinlarning tub zaminini shaxs jumbog‘i bilan bog‘lashida ko‘radi.

Q.Qahramonov akademik B.Nazarov qalamiga mansub “G‘afur G‘ulom olami” risolasini G‘.G‘ulom nasri va nazmini bezab turuvchi eng go‘zal xususiyatlardan biri milliy joziba ekani idrok etilgani jihatidan qadrlaydi. Darhaqiqat, B.Nazarov ulug‘ shoir nafasat olamini g‘oyat noziklik bilan ilg‘ay olgan hassos munaqqidlarimizdan biri edi.

Kitobda akademik N.Karimov – yetuk adabiyotshunos ekani uning atoqli shoir va yozuvchilar asarlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish borasidagi mashaqqatli mehnatlari, shuningdek o‘nlab risola va esselari hamda ma‘rifiy romanlari-yu publitsistik maqolalari misolida dalillangan. Ushbu bo‘limda Asil Rashidovning aytmatovshunoslikka qo‘shgan hissasi, adabiyotshunosligimizda N.Eshonqul ijodining o‘rganilishi, B.Karimning qodiriyshunoslikdagi yangicha talqinlari haqidagi fikr-mulohazalarga ham keng o‘rin ajratilgan.

Kitobning “*XX asr o‘zbek adabiyotiiga chizgilar*” nomli ikkinchi bo‘limida A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani, Cho‘lpon va Mag‘jon Jumaboy she‘riyati, qahhorshunos olimlar M.Qo‘shjonov va U.Normatov qalamiga mansub “Mahorat sirlari” (1968) hamda O.Sharafiddinovning “Mashhur kishilar hayoti” seriyasidagi “Abdulla Qahhor”(1988) nomli adabiy portreti tahlilga tortiladi. Sharof Rashidov va Shuhrat asarlarida davr ruhi va qahramon talqini masalalari o‘rganiladi. Chingiz Aytmatov va Odil Yoqubov o‘rtasidagi ijodiy do‘stlik negizida ular asarlaridagi mushtarak tamoyillar belgilanadi. Professor Abdug‘afur Rasulovning “Ardoqli adib” kitobida O‘tkir Hoshimovning adabiy siymosi o‘ziga xos rangin bo‘yoqlarda chizilgani, xususan, yozuvchining ijodkorlik salohiyati, shaxsiyati, ijodiy laboratoriyasi o‘ziga xos yo‘sinda yaratilganiga e‘tibor qaratiladi. Abdulla Oripov o‘zbek adabiyotini yangi bir bosqichga ko‘tarishga katta hissa qo‘shgan, chinakam badiiy san‘at asarlarini yarata olgan ijodkorlardin biri sifatida baholanadi. Anvar Obidjonning “Ajinasi bor yo‘llar”⁷ nomli avtobiografik asarida bolalik olamining o‘ziga xos ranglarda tasvirlashiga diqqat qaratiladi. A‘zam O‘ktamning badiiy olami kashf etiladi.

⁷ Obidjon A. Ajinasi bor yo‘llar. – T.: 2015.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Kitobning “*Ustozlar va do‘stlar yodi*” nomli uchinchi bo‘limida Saydi Umirovning insoniy fazilatlarini hamda “Sehrli va mehrlil so‘z” kitobiga kirgan maqolalari tadqiq etilgan. Iste‘dodli shoir Rustam G‘anining “Muhabbat chechaklari” she‘riy kitobi, shoir shaxsiyatiga xos kamtarinlik, kamgaplik, kamsuqumlilik, rostgo‘ylik singari ulug‘ insoniy fazilatlarining badiiy ijodiga ko‘chishi bilan bog‘liq jarayonlar ko‘rsatilgan. Umurzoq O‘ljaboyevning hayot va ijod yo‘li yoritilgan.

7. Xulosa o‘rnida

Yetmish bahor odam-u olam ibtidosi va abadiyat qoshida lahzalik muddat. Ammo bu palla o‘sha muborak kunlarga yetgan har bir inson o‘z umrining bosib o‘tilgan yo‘llariga bir qur nazar solish va uni sarhisob qilish uchun andak tin oladigan davrdir.

Odatda, donishmand xalqimiz hayot yo‘llarini yashalgan oy va yillar bilan emas, balki uning asl mohiyati bilan o‘lchaydi. Yuqorida biz shu mezonda sobit turib, Qurdosh Qahramon umr yo‘li so‘qmoqlari bo‘ylab sayr etdik. Ko‘rganimiz va kuzatganimizdan ayon bo‘ldiki, u har qanday ota-ona orzulaydigan qobil farzand, ehtiromli ini, mehribon aka, sevimli er, ardoqli ota, qadrdon do‘st, sadoqatli shogird, xayrixoh ustoz, jonkuyar olim, nuroniy bobo – katta harflar bilan yoziladigan CHIN INSONdir.

Bizningcha, yuqorida qayd qilingan fazilat-sifatlarining har biri va Pangatdan kelib respublika ilmiy-adabiy hamda pedagogik jamoasining e‘tirofiga sazovor bo‘lish, jahoniy adabiyotshunoslikka bo‘ylashish ham chinakam QAHRAMONlikka tengligi shoyon haqiqatdir. Shunday ekan, Yalg‘ash muallim va Nozbuvi momolar ikkinchi farzandlariga ism tanlash asnosida ham zinhor adashishmagan.

Agar, biz PANGATLIK QAHRAMON haqida so‘z yuritish va sarhisob qilish mahalida nimalarnidir xotirimizdan faromush qilganimizda ham, sanalganlarning o‘ziyoq ko‘ngilga taskin, qalbga iftixor, ruhiyatga g‘urur va tafakkurga qanot bag‘ishlashga arzigulikdir. Shunday ekan, so‘zni muxtasar qilish va Qurdosh Qahramon va Naziraxonga sihat-salomatlik, oilaviy hamjihatlik, farzandlar kamoli, shogirdlar ehtiromi nasib etishini tilaymiz. Binobarin, yubilyarimizga faoliyatining barcha turlarida kuch-quvvat, mustahkam iroda, sabot-matonat, yangidan yangi ilmiy-ijodiy parvozlar tilash fursati ham yetdi. Ulug‘ ayyomlar muborak bo‘lsin!